

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2023- yilda Toshkent viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda – YAHM) hajmi joriy narxlarda 107 918,1 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2022- yil bilan taqqoslaganda 5,0 % ga o'sdi.


YAHM deflyator indeksi 2022- yil narxlariga nisbatan 108,4 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMning shakllanishida Toshkent viloyatining qo'shgan hissasi 10,1 % ga yetdi.

2023- yilda Toshkent viloyatida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot



- YAHM o'sish sur'ati
- YAHM hajmi
- YAHM deflyator indeksi
- YAIMga qo'shgan hissasi



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari

	Mlrd. so'm		O'sish sur'atlari, o'tgan yilga nisbatan % da
	2022- yil	2023- yil	
I. YAHM, jami	94 789,9	107 918,1	105,0
<i>shu jumladan:</i>			
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	91 143,4	104 002,2	105,0
mahsulotlarga sof soliqlar	3 646,5	3 915,9	104,7
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	91 143,4	104 002,2	105,0
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	20 055,8	23 266,3	104,0
sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	49 104,8	54 949,4	105,2
sanoat	44 003,5	48 926,1	105,1
qurilish	5 101,3	6 023,3	106,2
xizmatlar	21 982,8	25 786,5	105,7
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	5 572,0	6 783,9	109,3
tashish va saqlash, axborot va aloqa	4 090,0	5 043,7	108,7
boshqa xizmat tarmoqlari	12 320,8	13 958,9	103,0



Quyida keltirilgan infografikadan ko'rinib turganidek, aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 35 703,7 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 3,1 % ga yuqoridir.

Aholi jon boshiga hisoblangan YAHM hajmi (ming so'mda)



Aholi jon boshiga hisoblangan YAHMning o'sish sur'atlari (o'tgan yilga nisbatan % hisobida)



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

	2022- yil	2023- yil
I. YAHM, jami	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>		
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	96,2	96,4
mahsulotlarga sof soliqlar	3,8	3,6
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	100,0	100,0
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	22,0	22,4
sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	53,9	52,8
sanoat	48,3	47,0
qurilish	5,6	5,8
xizmatlar	24,1	24,8
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	6,1	6,5
tashish va saqlash, axborot va aloqa	4,5	4,8
boshqa xizmat tarmoqlari	13,5	13,5



2023- yilda hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 96,4 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 3,6 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligining YAHMning tarmoqlar bo‘yicha tarkibidagi ulushi 22,4 %ni, sanoat tarmog‘i 47,0 % ni, qurilish 5,8 % ni va xizmatlar sohasi 24,8 % ni tashkil qildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

2022- yil

3,8 %



22,0 %

Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi

48,3 %

Sanoat

5,6 %

Qurilish

24,1 %

Xizmatlar

2023- yil

Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi

22,4 %

Sanoat

47,0 %

Qurilish

5,8 %

Xizmatlar

24,8 %



3,6 %


● Yalpi qo‘shilgan qiymat

● Mahsulotlarga sof soliqlar

YAHM o'sishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'i 0,8 f.p. (2022- yilda – 0,8 f.p.), sanoat tarmog'i – 2,4 f.p. (2022- yilda – 2,7 f.p.), qurilish tarmog'i – 0,3 f.p. (2022- yilda – 0,4 f.p.) va xizmat ko'rsatish sohasi – 1,3 f.p. (2022- yilda – 1,6 f.p.) ijobiy hissa qo'shdi.


Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YAHM 0,2 f.p. (2022- yilda –0,3 f.p.)ga ko'paydi.

2023- yil uchun YAHM o'sishida tarmoqlarning hissasi (jamiga nisbatan % da)




2023- yilda YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 104,0 % (YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 22,4 %), sanoatda – 105,1 % (47,0 %), qurilishda – 106,2 % (5,8 %), xizmatlar sohasida –105,7 % ni (24,8 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 109,3 % (6,5 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 108,7 % (4,8 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 103,0 % dan (13,5 %) iborat bo'ldi.

YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari (o'tgan yilga nisbatan % da)



2023- yilda YAHM deflyatori indeksi 2022- yildagi narxlarga nisbatan 108,4 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 111,6 % va qurilishda – 111,2 % qayd etildi.

YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi (o'tgan yilga nisbatan % da)



2023- yilda kichik tadbirkorlik 50 670,5 mlrd. so‘mni tashkil etdi (2022- yilda – 42 496,6 mlrd. so‘m). YAHMdagi ulushi 48,7 % ni (2022- yilda – 46,6 %) tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining o‘tgan yilga nisbatan o‘sishi yirik korxonalar ulushining kamayishi bilan bog‘liq.

Kichik biznesning hajmi va YAHMdagi ulushi (jamiga nisbatan %da)

Hajmi, mlrd.so‘m

Ulushi, % da

2022- yil

42 496,6

46,6 %

2023- yil

50 670,5

48,7 %

